


## Korxonalar va tashkilotlar (2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yilning yanvar-noyabr oyida Qoraqalpog'iston Respublikasida 2434 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 727 taga ko'pdir.

Natijada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirganda 1775 ta (12,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15484 tani tashkil etgan.


### Korxona va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rinda tadbirdorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, xayotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda**




**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning  
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 20,4 % savdoda, 11,3 % sanoatda, 11,0 % qurilishda, 12,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,8 % tashish va saqlash, axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1,9 % dan va 30,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning  
hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) birlikda




**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) birlikda

	<b>Ro'yhatdan o'tgan</b>	<b>Faoliyat ko'rsatayotgan</b>	<b>2018-yil 1 dekabr holatiga</b>	
			<b>Ro'yhatdan o'tgan %</b>	<b>Faoliyat ko'rsatayotgan %</b>
Qoraqligiston Respublikasi	<b>15963</b>	<b>15484</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Amudaryo	1163	1132	7,3	7,3
Beruniy	1319	1287	8,3	8,3
Qorao'zak	458	455	2,9	2,9
Kegeyli	471	470	3,0	3,0
Qo'ng'iroq	896	851	5,6	5,5
Qanliko'l	406	400	2,5	2,6
Mo'ynoq	263	260	1,6	1,7
Nukus	671	649	4,2	4,2
Taxiatosh	459	440	2,9	2,8
Taxtako'pir	302	291	1,9	1,9
To'rtko'l	1601	1493	10,0	9,6
Xo'jayli	804	756	5,0	4,9
Chimboy	608	589	3,8	3,8
Shumanay	383	375	2,4	2,4
Ellikkala	1005	996	6,3	6,4
Nukus sh.	5154	5040	32,3	32,7

2018 yil yanvar-noyabr holatiga 2434 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 42,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Nukus shahrida (789 ta), To'rtko'l (198 ta), Amudaryo (175 ta) va Beruniy (150 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Taxtako'pir (47 ta), Kegeyli (62 ta) va Mo'ynoq tumanlarida (65 ta) tashkil etilgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar  
va tashkilotlarning soni, birlikda**




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rildianda eng ko'pi savdoda (422 ta), sanoatda (448 ta), qurilishda (380 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (322 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa tashish va saqlashda (76 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (50 ta) hamda axborot va aloqada (20 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

	2016 yil 1 dekabr xolatiga			2017 yil 1 dekabr xolatiga			2018 yil 1 dekabr xolatiga		
	Jami	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %
Qoraqalpogiston Respublikasi	<b>1279</b>	<b>113,5</b>	<b>100,0</b>	<b>1707</b>	<b>133,5</b>	<b>100,0</b>	<b>2434</b>	<b>142,6</b>	<b>100,0</b>
Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi	238	137,6	18,6	370	155,5	21,7	322	87,0	13,2
Sanaot	147	94,8	11,5	357	242,9	20,9	448	125,5	18,4
Qurilish	176	99,4	13,8	188	106,8	11,0	380	202,1	15,6
Savdo	286	106,7	22,4	292	102,1	17,1	422	144,5	17,3
Tashish va saqlash	96	104,3	7,5	58	60,4	3,4	76	131,0	3,1
Yashash va ovqatlanish	138	181,6	10,8	126	91,3	7,4	134	106,3	5,5
Axborot va aloqa	52	130,0	4,1	37	71,2	2,2	20	54,1	0,8
Sog`lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish	24	120,0	1,9	42	175,0	2,5	50	119,0	2,1
Boshqa turlar	122	96,8	9,5	237	194,3	13,9	582	245,6	23,9


**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**



**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

2018 yil 1 dekabr holatiga 12393 tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2995 ta, oilaviy korxonalar – 662 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 8392 ta va boshqalar 344 tani tashkil etadi.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat  
yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**

2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 116 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 39 taga yoki 50,6 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 69 tasi qo'shma korxonalar, 47 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
yillar davomida o'sishi, birlikda**



## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Nukus shahar (21 ta yoki jamidagi ulushi 18,1 %), Mo'ynoq tumanida (15 ta yoki 12,9 %), Taxiotosh tumani (11 ta yoki 9,5%), Kegeili va Nukus tumanlarida (9 tadan yoki 7,8 %), Q'ong'irot tumani (8 ta yoki 6,9%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xo'jaili va Ellikqa'la tumanlarida (3 tadan yoki 2,6 %), Shomanay tumani (2 ta yoki 1,7 %) va To'rtko'l tumani (1 ta yoki 0,9 %) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 dekabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 56 tani (48,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 33 tani (28,4 %) hamda savdoda 16 tani (13,8 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa qurilishda 3 tani (2,6 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 tani (1,7 %), yashash va ovqatlanishda hamda tashish va saqlashda 1 tadan (0,9 %), hizmat turlarida tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa qurilishda, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda, tashish va saqlashda hamda yashash va ovqatlanish faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)**



2018 yilning yanvar-noyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 31 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi - 10 ta, Qozog'iston Respublikasi - 6 ta, Pokiston Islom Respublikasi - 4 ta, Hindiston Respublikasi - 2 ta, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 1 ta hamda 8 tasi boshqa davlatlar rezidentlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-noyabr holatiga) birlikda**




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 15 ta, sanoatda 11 ta, savdoda 2 ta, qurilishda, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda boshqa faoliyat turlarida 1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-noyabr			2018 yil yanvar-noyabr		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %
Qoraqpogiston Respublikasi	14	175,0	100,0	31	221,4	100,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	400,0	28,6	15	375,0	48,4
Sanaot	8	133,3	57,1	11	137,5	35,5
Qurilish				1	0,0	3,2
Savdo				2	0,0	6,5
Tashish va saqlash	1	0,0	7,1			
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish				1	0,0	3,2
Boshqa turlar	1	0,0	7,1	1	100,0	3,2


## Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 dekabr holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 11892 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 dekabr holatiga qaraganda 13,1 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 4194 tasi (35,3 %) Nukus shahriga, 1247 tasi (10,5 %) To'rtkul, 1014 tasi (8,5 %) Beruniy va 831 tasi (7,0 %) Amudaryo tumanlari hissalariga to'gri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11892 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3148 tasi (26,5 %)- savdoda, 1829 tasi (15,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1723 tasi (14,5 %) - sanoatda, 1691 tasi (14,2 %) - qurilishda, 899 tasi (7,6 %) - yashash va ovqatlanishda, 743 tasi (6,2 %) - tashish va saqlashda bo'yicha xizmatlar sohasida, 256 tasi (2,2 %) - axborot va aloqa sohasida, 210 tasi (1,8 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1393 tasi (11,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### **Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2018 yil yanvar-noyabr holatiga 1995 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 27,4 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Nukus shahrida (693 ta), To'rtkul (177 ta), Amudaryo (143 ta) va Qong'irot tumanlarida (117 ta) tashkil etilgan. Eng kam Taxtakupir (30 ta), Qanliko'l (42 ta) hamda Kegeili (47 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (448 ta), savdoda (422 ta), qurilishda (380 ta) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (320 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (75 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (49 ta) hamda axborot va aloqada (20 ta) tashkil etilgan.


### Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 dekabr holatiga 662 tani tashkil etib, ulardan 642 tasi yoki 97,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 29,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 29,4 % yoki 189 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 28,0 % yoki 180 tasi sanoat, 20,7 % yoki 133 tasi savdo, 8,3 % yoki 53 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 2,2 % yoki 14 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatishda, 1,4 % yoki 9 tasi axborot va aloqa, 0,6 % yoki 4 tasi qurilish, 0,3 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, hamda 9,1% yoki 58 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko`rsak eng ko`pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida, eng kami qurilish hamda tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hisssiga to'gri keladi.

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Tel.:71-230-82-23 (24)**